

**MUSTAQILLIKNING DASTLABKI YILLARIDA QASHQADARYO VILOYATI  
MAKTABGACHA TA’LIM MUASSASALARIDAGI KADRLAR MASALASI**

**Norbo‘tayeva Go‘zal Abdigafirovna**  
**QarMII tadqiqotchisi, Qarshi**

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada mustaqillikning dastlabki yillarida Qashqadaryo viloyati maktabgacha ta’lim muassasalaridagi kadrlar masalasi haqida so‘z boradi. Muallif ilmiy ma’lumotlarga tayanib, mavjud adabiyotlar asosida mustaqillikning dastlabki yillarida Qashqadaryo viloyati maktabgacha ta’lim muassasalaridagi kadrlar masalasi bo‘yicha o‘ziga xos jihatlarini o‘rgangan va tahlil qilgan.

**Kalit so‘zlar:** Mustaqillikning dastlabki yillari, maktabgacha ta’lim, muassasa, kadrlar masalasi, tarbiyachi.

Malakali kadrlar yetishmasligi maktabgacha tarbiya sohasini past sur’atlarda rivojlanishining bir sababi bo‘lishi mumkin. Yoki aksincha, bu sohaning yaxshi rivojlanmaganligi, uning jozibadorligini pasaytirib ishchilar oqimini yetarli jalb qila olmasligiga sabab bo‘lishi mumkin. Aytish mumkinki, bu ikki hil qarashning o‘ziga yarasha haqiqatlari bor. Inson mehnat qilar ekan turmushini farovon qilishni maqsad qiladi. Ta’lim sohasini rivojlantirish esa tajribali va tegishli ma’lumotga ega bo‘lgan xodimlar orqali amalga oshiriladi.

Mamlakatimizga maktabgacha tarbiya tarmog‘ining kirib kelishi bilan uning to‘laqonli rivojlanib ketishi uchun bir qator muammolar mavjudligi ko‘zga tashlandi. Shulardan biri va eng muhimi malakali kadrlarning yetishmasligi edi. Malakali kadrlarsiz soha rivojlanmasligini anglagan hukumat turli tadbirlarni amalga oshirgan.

Afsuski, mustaqillikning dastlabki yillarida ta’lim tizimida amalga oshirilgan islohotlar va ijtimoiy rivojlanish yo‘nalishlari aholining o‘sish dinamikasi, yoshlarning qiziqishlari va jahon tajribasi yutuqlariga nomutanosib rivojlandi. Albatta, bunda kechiktirib bo‘lmas boshqa yo‘nalishlardagi qilinishi lozim bo‘lgan ishlar yo‘l bermadi deyish mumkin.

Bu holat yillar davomida yig‘ilib qolgan muammolarni oxir oqibat yuzaga chiqishi bilan ham izohlanadi. Shu boisdan, salkam 80 yil ittifoq tarkibida bo‘lgan O‘zbekiston uchun bunday muammolar doimo bo‘lganligi ko‘rsatadi. Xususan, ittifoq davriga nazar tashlansa,

butun O'zbekiston misolida oliy ma'lumotli kadrlar bilan ta'minlanganlik darajasi o'rtacha bo'lgan deyish mumkin. Buni boshqa ittifoqdosh respublikalardagi holat bilan taqqoslab ko'rish orqali tushunish mumkin. Ittifoq respublikalarida har 10 000 nafar fuqaroga to'g'ri keladigan oliy ma'lumotli mutaxassislar soni bo'yicha qaydlar statistik to'plamlarda o'z aksini topgan. SSSR bo'yicha bu ko'rsatkich 1970-yilda o'rtacha 26 nafar, 1980-yilda 31 nafar, 1988-yilda 27 nafar bo'lib, shundan RSFSRda 1970-yilda o'rtacha 28 nafar, 1980-yilda 33 nafar, 1988-yilda 30 nafar, Ukrainada 1970-yilda o'rtacha 25 nafar, 1980-yilda 30 nafar, 1988-yilda 25 nafar, O'zbekistonda 1970-yilda o'rtacha 28 nafar, 1980-yilda 28 nafar, 1988-yilda 21 nafar ni tashkil etgan. Aytish mumkinki, O'zbekiston bu yo'nalishda Boltiq bo'yi davlatlari va boshqa qo'shni davlatlardan ko'ra balandroq, Armanistondan esa pastroq bo'lgan[1]. Bu raqamalni respublika kesimida tahlil qilganda Toshkent shahri 90-128 nafar oliy ma'lumotli mutaxassislar (har 10 000 nafar fuqaroga nisbatan) bilan yaqqol peshqadam bo'lgan bo'lsa, Xorazm, Namangan va Surxondaryo 7 nafar bilan eng quyi, Qashqadaryo viloyati esa 10-11 nafar bilan o'rta darajani qayd etgan.

Ma'lumki, O'zbekiston mustaqillikka erishgan dastlabki yillarda og'ir iqtisodiy sharoitlarda yashashga majbur bo'ldi. Rejali iqtisod va markazdan keladigan topshiriqlar asosiga qurilgan rivojlanish tizimi barbod bo'lgach, yangidan iqtisodni yo'lga qo'yib olish oson bo'lmagan. Bu o'z navbatida, hamma sohaga o'zining salbiy ta'sirini ko'rsatgan. Maktabgacha ta'lim sohasi ham huddi shunday muammolar bilan rivojlanishdan ortda qolib ketdi. Bu paytga kelib bolalar bog'chalari bolalarning qamrovi kamayib ketganligi sababli birin ketin yopilar va xususiy sektorga sotilar edi. Sohani xususiylashtirish ham unchalik yaxshi samara bermadi, sababi mamlakatni qamrab olgan ihsizlik qamrov darajasini yuqori bo'lishiga yo'l qo'ymas edi. Shunday murakkab vaziyatda bolalar bog'chalarining mudiralari o'ziga xos jonbozlik ko'rsatib, davlat maktabgacha ta'lim muassasalarini saqlab qolishga erishgan. Gap shundaki, bu paytda ota-onalar ko'p vaqtini uyda o'tkazar, oylik to'lovni tejash orqali oilani boqib turishni maqsad qilardi. Shu sababdan ota-onalar bolalarini bog'chalarga bermasdan uyda tarbiyalashni afzal ko'rishgan. Bunday vaziyatda fidoiy va ishbilarmon mudiralar tashabbusni qo'lga olib, uyma-uy yurib targ'ibot va tashviqot ishlarini olib borar, shu orqali muassasa "hayotini saqlab" qolishga erishar edi[2]. Shu sababdan ham har bir soha rivoji uchun to'g'ri tanlangan kadrlar va tajribali mutaxassislarning ahamiyatini e'tirof etmasdan imkon yo'q.

O'zbekistonning siyosiy jarayonlar ortidan mustaqillikka erishishi, aytish joizki, barcha sohalarda bo'lgani kabi ta'limda ham kutilmagan qiyinchiliklar tug'dirdi. SSSRda olib borilgan siyosat ham iqtisodiy ham siyosiy jihatdan tanazzulga yuz tutdi va bu og'ir yukni O'zbekiston meros qilib oldi. O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti Islom Karimov yuksak ma'rifiy-madaniy jamiyat qurish, buyuk kelajakni va'da qilgan davlat barpo etish sari siyosiy harakat qilib borar ekan, avvalombor yig'ilib qolgan muammolarni bartaraf etish yo'llarini qidirdi. Buning uchun albatta, aholini savodli qilish, ma'naviy yuksaltirish lozim edi. Ma'lum bir tartiblarga asoslangan, yuqoridan keladigan buyruqlarga qarab ish ko'rib kelgan tizim uchun mustaqillik sharoitida buni amalga oshirish turli qiyinchiliklarga yuz tutishi tabiiy hol edi.

Ushbu vazifalarni amalga oshirishda eng muhim hisoblanadigan tizim bu – xalq ta'limi sohasi, ya'ni maktabgacha va maktab ta'limi bo'lib, mazkur tizimda faoliyat olib borayotgan mutaxassislariga alohida e'tibor qaratish eng oldi vazifalardan biri bo'lib qolgan edi. Zotan, o'zining ming yillik tarixiga ega va ayni paytda mustaqillikka endi erishgan mamlakat uchun hur fikrli, puxta bilimga ega, kasb-hunarli va ma'rifatli fuqarolar zarur edi. Chunki, shu kabi fuqarolar bilangina mustaqillikni saqlab qolish va buyuk kelajakni qurish mumkin edi. Bunda eng avvalo bog'cha va maktab yoshidagi bolalardan boshlash samarali ekanligi aniqlandi. Sababi bu yoshdagi bolalar hali sotsialistik g'oyalar ta'siriga tushmagan va yozilmagan qog'oz kabi toza edi. Shu kabi sabablar tufayli ta'limda qilinishi kerak bo'lgan islohotlar kechiktirib bo'lmas xarakter kasb etdi. Islohotlar natijasida O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining 1992-yil 2-iyuldagi qaroriga asosan "Ta'lim to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasining qonuni qabul qilindi[3]. Ushbu qonun 1997-yil 24-avgustda qayta tahrir qilinib yangi ko'rinishda qabul qilindi. Ta'lim-tarbiya sohasini isloh kilish dastlab huquqiy bazani mustahkamlashdan boshlanadi. Bu boradagi ilk huquqiy asos yuqoridagi hujjat bo'lib, keyinchalik, ya'ni 1997-yil 29-avgustda "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" qabul qilindi[4].

Mustaqillik yillarida ta'lim sohasini rivojlantirishga qaratilgan davlat siyosatida huquqiy-me'yoriy bazani yaratish va modernizatsiya qilish muhim ahamiyat kasb etdi. Buning asosiy sabablari quyidagilardan iborat edi:

- tajribali pedagog va murabbiylarga bo'lgan ehtiyojning ortishi;
- iqtisodiy qiyinchiliklar tufayli ta'lim sohasidagi kadrlarning yanada daromadli sohalarga o'tib ketishi;
- aksariyat soha vakillarining zamon talablariga to'liq javob bera olmasligi;

vatanparvarlik ruhida tarbiyalangan, erkin fikrlaydigan barkamol avlodni yetishtirishga qaratilgan davlat darajasidagi amaliy chora-tadbirlarni rivojlantirish zaruratining ortishi;

ta’limni rivojlantirish yo’lida davlat byudjetidan tashqari qo‘shimcha sarmoyalarni jalb qilish imkoniyatining cheklanganligi;

nodavlat ta’lim sektorlarini tashkil qilish va ta’lim muassasalari o’rtasida sog‘lom raqobat muhitini shakllantirishning yetishmasligi.

Ushbu muammolar ta’lim tizimini tubdan modernizatsiya qilish zarurligini ko’rsatib berdi. Bu borada, O‘zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I.A. Karimov o‘z fikrlarini bildirib o‘tgan. Uning ta’kidlashicha: “...nafaqat umumiy ma’lumot va tarbiyani, balki kadrlarning kasb-korga yo‘nalish olishini, ularni tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirishni o‘z ichiga oluvchi yagona uzluksiz milliy ta’lim tizimini yaratish vazifasi qo‘yilmoqda. Bunda O‘zbekistonning o‘ziga xos xususiyatlari, xalqning milliy-ruhiy turmush tarzi, ta’limdagi butun jahon va Sharq tajribasining eng yaxshi yutuqlari har tomonlama e’tiborga olinishi kerak. Oliy va o’rta maxsus ta’limning butun tizimini tubdan qayta ko’rish, talabalar o‘qiydigan mutaxassisliklar tarkibini jiddiy o‘zgartirish kerak. O‘quv yurtlarining yangi shakllari – gimnaziyalar, litseylar, kollejlar rivojlanadi. Malakali ishchi kadrlar tayyorlash tizimi yangi xususiyatlarga ega bo‘ladi. Iqtidorli yoshlarni xorijiy mamlakatlarning yetakchi o‘quv, ilmiy markazlari va firmalariga o‘qishga va stajirovkaga yuborishga muhim ahamiyat beriladi”[5].

Yuqoridagi sabablardan ham ko’rish mumkinki, asosiy e’tibor kadrlar masalasiga qaratilgan. Sababi har qanday tizimni yurdirish uchun malakali kadrlar lozim bo‘ladi. Inson yashash uchun kurashar ekan, albatta o‘z ishidan manfaat topishi, o‘z-o‘zini va oilasini ta’minlashni ko‘zda tutadi. Kadrlar qo‘nimsizligiga asosiy sabablardan biri ham shu bo‘lgan deyish mumkin.

O‘tish davrining keskin qiyinchiliklarini inobatga olib, mamlakatning muhim qadriyatlarini saqlash, kadrlar tayyorlash tizimining asosiy tarkibiy qismlarini tubdan modernizatsiya qilish va aholining ta’lim sohasidagi salohiyat darajasini har tomonlamma yuksaltirish maqsadida yangi tahrirdagi “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonun va “Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi” (1997-yil avgust) qabul qilindi. Ushbu hujjatlarda uzluksiz ta’limning yangi modeli taklif qilindi[6].

Bu model ta’lim jarayonida innovatsion yondashuvlarni, zamonaviy pedagogik texnologiyalarni joriy etish, xalqaro standartlar asosida kadrlar tayyorlash tizimini yangilash, shuningdek, ta’lim-tarbiya jarayonining barcha bosqichlarida sifatni oshirishga yo’naltirilgan. Ta’limdagi islohotlar natijasida, pedagoglar va murabbiylarning malakasini oshirishga qaratilgan dasturlar, ilmiy tadqiqotlarni rag’batlantirish mexanizmlari ishlab chiqildi.

Bundan tashqari, aholining barcha qatlamlari uchun ta’lim olish imkoniyatlarini kengaytirish, ayniqsa, qishloq joylarida ta’lim sifatini yaxshilashga alohida e’tibor qaratildi. Ushbu yangi model, ta’lim sohasini yanada demokratik va gumanistik ruhda rivojlantirishni, innovatsion texnologiyalar va xalqaro tajribalardan foydalangan holda, ta’limni ilmiy asosda tashkil qilishni nazarda tutadi.

Shu tariqa, yangi tahrirdagi qonun va dasturlar asosida O‘zbekiston ta’lim tizimi jahon andozalariga mos keladigan sifatli kadrlarni tayyorlashga qaratilgan keng ko‘lamli islohotlarni amalga oshirdi.

Qashqadaryo viloyati maktabgacha ta’lim tashkilotlarida ta’lim sifati va samaradorligini oshirishda respublika maktabgacha ta’lim tizimiga oid normativ huquqiy hujjatlarni ijrosini ta’minlash bilan bir qatorda bolalar qamrovini oshirish va maktabgacha ta’lim tashkilotlari sonini ko‘paytirish, 3-7 yoshdagi bolalarni maktabgacha ta’lim bilan qamrab olish, 6 yoshli bolalar qamrovini yaxshilash, 3-7 yoshdagi bolalarni “O‘zbekiston Respublikasi “Ilk va maktabgacha yoshdagi bolalarga qo‘yiladigan davlat talablari” darajasida tarbiyalash asosida ishlar amalga oshirib kelingan[7].

Shu bilan birga, 1996-yilning mayiga qadar pedagogika o‘quv yurtlari “Maktabgacha tarbiya” mutaxassisligining 1996/97 o‘quv yilida qabul etiladigan 1 kurs talabalari uchun maktabgacha tarbiya muassasalar tarbiyachisi va ingliz, rus va o‘zbek, (Qoraqalpogistonda esa o‘zbek, qoraqalpoq, rus va ingliz) tillarini o‘rgatuvchi mutaxassislar tayyorlovchi o‘quv rejalarini tayyorlash ko‘zda tutilgan. O‘sha yilning 1-fevraligacha belgilangan 200 hamda 70 soatlik kurslar bo‘yicha o‘quv dasturlari, taqvim-rejalar va metodik tavsiyalar ishlab chiqish, iyun oyiga qadar maktabgacha tarbiya muassasalari uchun ingliz, rus va o‘zbek tilini o‘rgatish bo‘yicha dastur, metodik tavsiyalar va ishlanmalar tayyorlash ishlar amalga oshirilgan[8].

Qayd etilishicha, abituriyentlarning qabul kvotalari, qabul imtihonlari va boshqa tashkiliy masalalari ham shu qoidalarga moslashtirilishi belgilangan.

Mazkur masalalarni amalga oshirish maqsadida ilmiy salohiyatli professor-o'qituvchilardan iborat Ishchi guruhlari tuzilib qilinishi zarur bo'lgan ishlar belgilab berilgan.

Faoliyat olib borayotgan tarbiyachi-pedagoglarning ham malakasini oshirish bo'yicha ishlar yo'lga qo'yilgan bo'lib, bunga Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika instituti, Toshkent jahon tillari universiteti qoshidagi Respublika til o'rgatish markazi va xalq ta'limi xodimlari malakasini oshirish Markaziy instituti mutaxassislari keng jalb qilingan.

Qoraqalpog'iston Respublikasi, Toshkent shahar va viloyat o'qituvchilar malakasini oshirish institutlariga topshiriq asosida tayyorlangan ma'ruzachilar yordamida maktabgacha tarbiya muassasalari xodimlari uchun bir oy muddatli bolalar bog'chalarida ingliz, rus va o'zbek tillarini o'rgatish bo'yicha maqsadli tayyorlov kurslarini tashkil etish topshirilgan.

Maktabgacha ta'lim tizimi xodimlarining malakasini oshirish, ularni rivojlangan davlatlardagi innovatsion uslublar va qo'llanmalar bilan tanishtirish va o'zlashtirishi uchun respublika davlat tashkilotlari bilan bir qatorda xalqaro tashkilotlar ham faol ishtirok etdi. 2005-yildan boshlab, Respublika miqyosida Xalq ta'limi vazirligi va Jahon banki hamkorligida maktab ta'limini rivojlantirish loyihasining 2-komponenti doirasida maktabgacha ta'lim muassasalari tarbiyachilari uchun seminar-treninglar o'tkazildi. Shuningdek, yangi uslubiy ko'rsatmalar bepul tarqatildi[9].

Mustaqillik yillarida viloyatda maktabgacha ta'lim sohasida samarali mehnat faoliyatini olib borgan xodimlar rag'batlantirib kelingan. Xususan, "Shuhrat" medali bilan Tursunova Munavvar, "Sog'lom avlod uchun" ordeni bilan G'aniyeva Mahfuza, Murodova Dilbar, Haydarova Sojida, Murodova Navbahor, "O'zbekiston Respublikasi Mustaqilligining 25 yilligi" ko'krak nishoni bilan To'rayeva Shoira, "O'zbekiston Respublikasi Mustaqilligining 30 yilligi" ko'krak nishoni bilan Sultonova Xolnisa, Saidaliyeva Gulmira, Akbarova Maqsuda, Akbarova Mavluda, "Xalq maorifi a'lochisi" unvoni bilan Haydarova Sojida, Karimova Xadicha, Muhammadiyeva Gulbahor, Ibodullayeva Nigora va boshqalar taqdirlangan[10].

**ADABIYOTLAR**

1. Народное хозяйство СССР в 1988 г. Статистический ежегодник. Москва. “Финансы и статистика” 1989 г. – С. 204
2. Qashqadaryo viloyat Xalq ta’limi boshqarmasi boshlig’i (1995-1997 yu.) X.Xasanova bilan olib borilgan suhbat. 01.08.2021 y.
3. O‘zbekiston Respublikasining 02.07.1992 yildagi “Ta’lim to‘g‘risida”gi 636-XII-son Qonuni <https://lex.uz/docs/56418>; O‘zbekiston Respublikasining 29.08.1997 yildagi “Ta’lim to‘g‘risida”gi 464-I-son Qonuni. <https://lex.uz/docs/16188>.
4. O‘zbekiston Respublikasining 29.08.1997 yildagi 463-I-son “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” <https://lex.uz/docs/48401>
5. Karimov I.A. O‘zbekistonning o‘z istiqlol va taraqqiyot yo‘li. – Toshkent: O‘zbekiston, 1992. – B. 54.
6. O‘zbekiston Respublikasining 29.08.1997 yildagi “Ta’lim to‘g‘risida”gi 464-I-son qonuni <https://lex.uz/docs/16188>; O‘zbekiston Respublikasining 29.08.1997 yildagi 463-I-son “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” <https://lex.uz/docs/48401>
7. Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta’limi boshqarmasi joriy arxivi.
8. O‘zMA. M-26-fond, 1-ro‘yxat, 132-yig‘ma jild, 68-varaq.
9. Qurbonov Sh. Ilg‘or pedagogik texnologiyalar tizimdagi samaradorlikni yanada oshiradi // Milliy tiklanish. 2011 yil 12 oktabr. 40 (153).
10. Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta’limi boshqarmasi joriy arxivi.